

**SHAYX MUHAMMAD SODIQ MUHAMMAD YUSUFNING  
“BAXTIYOR OILA” ASARIDA ISLOM QADRIYATLARINING TALQINI**

**Jo‘rayev Akram Namozovich**

Termiz davlat universiteti Falsafa kafedrası o‘qituvchisi

**Nurmamatova Munisa Olimjon qizi**

Termiz davlat universiteti talabasi

**ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf ning Baxtiyor oila asarida ifodalangan islomiy qadriyatlarning oila hayotidagi talqini ilmiy asosda tahlil etiladi. Asarda oila inson hayotining muqaddas maskani hamda jamiyatning ma’naviy tayanchi sifatida yoritiladi. Muallif Qur’on oyatlari va hadislar asosida er-xotin o‘rtasidagi hurmat, sabr, mehr-oqibat, farzand tarbiyasi hamda axloqiy poklik kabi qadriyatlarning ahamiyatini ochib beradi. Tadqiqotda diniy-ta’limiy, sotsiologik va matnshunoslik yondashuvlari asosida asarning mazmuni tahlil qilinib, uning zamonaviy jamiyatdagi tarbiyaviy ahamiyati asoslab berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** oila, islom qadriyatlari, nikoh, tarbiya, axloq, jamiyat, mas’uliyat.

**АННОТАЦИЯ**

*В данной статье проводится научный анализ интерпретации исламских ценностей в семейной жизни, представленных в произведении Шейх Мухаммад Садык Мухаммад Юсуф «Baxtiyor oila». В работе семья рассматривается как священное пространство человеческой жизни и духовная основа общества. Автор, опираясь на аяты Коран и хадисы, раскрывает значение таких ценностей, как взаимное уважение супругов, терпение, милосердие, воспитание детей и нравственная чистота. Исследование основано на религиозно-педагогическом, социологическом и текстологическом подходах, что позволяет обосновать воспитательное значение произведения в современном обществе.*

**Ключевые слова:** семья, исламские ценности, брак, воспитание, нравственность, общество, ответственность

**ABSTRACT**

*This article provides a scientific analysis of the interpretation of Islamic values in family life as presented in the work Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Baxtiyor oila.” The family is described as a sacred institution and a spiritual foundation of society. Based on verses from the Qur’an and Hadiths, the author highlights the importance of mutual respect between spouses, patience, compassion, child upbringing, and moral purity. The study employs religious-educational,*

*sociological, and textual approaches to analyze the content of the work and justify its educational significance in modern society.*

**Keywords:** *family, Islamic values, marriage, upbringing, morality, society, responsibility*

## **KIRISH**

Zamonaviy globallashuv jarayonida oilaviy qadriyatlarning transformatsiyaga uchrashi oila institutini qayta ilmiy tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan, islomiy manbalarda oila masalasining talqini alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi, oila institutiga alohida e'tibor qaratadi. Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy bo'g'ini bo'lib, uning barqarorligi va mustahkamligi jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois islom ta'limotida oilaviy munosabatlar, er-xotin o'rtasidagi huquq va majburiyatlar, farzand tarbiyasi masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida milliy va diniy qadriyatlarni tiklash, ma'naviy merosni chuqur o'rganish jarayoni keng ko'lamda rivojlandi. Bu borada Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf ning Baxtiyor oila asari alohida ilmiy va ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lib, unda oila masalalari Qur'on oyatlari va hadislar asosida keng yoritilgan. Asarda oila muqaddas maskan, jamiyatning ma'naviy tayanchi sifatida talqin etilib, zamonaviy oilaviy muammolarga diniy-axloqiy yechimlar taklif etiladi [1]. Muallif ta'kidlaganidek, baxtiyor oila o'zaro hurmat, sadoqat, sabr-toqat va iymon kabi yuksak axloqiy qadriyatlarga asoslanadi. Ushbu tamoyillar nafaqat oilaviy barqarorlikni ta'minlaydi, balki jamiyatning ma'naviy rivojiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, zamonaviy oilaviy munosabatlarda kuzatilayotgan ma'naviy inqiroz holatlari islomiy qadriyatlar asosida qayta tahlilni talab etadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — Baxtiyor oila asarida ifodalangan islomiy qadriyatlarning konseptual asoslarini aniqlash va nazariy tizimini ilmiy jihatdan rekonstruksiya qilish hamda ularning zamonaviy ijtimoiy hayotdagi o'rnini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Asarning diniy-falsafiy asoslarini tahlil qilish.
2. Islom manbalarida oila qadriyatlarining talqinini aniqlash.
3. Asarda aks etgan axloqiy, ijtimoiy va diniy qadriyatlarning o'zaro bog'liqligini ochib berish.
4. Ushbu qadriyatlarning amaliy hayotdagi ifodasini tizimli ravishda yoritish.

## **METODOLOGIYA**

Mazkur tadqiqotda Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf ning Baxtiyor oila asari asosiy manba sifatida tanlab olindi. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida kompleks yondashuv asosida bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, tahliliy (analitik) metod orqali asardagi asosiy g'oya va tushunchalar tizimli ravishda o'rganildi. Qiyosiy metod yordamida asarda keltirilgan oilaviy qadriyatlar Qur'on oyatlari va hadislar bilan solishtirildi. Shuningdek, sotsiologik yondashuv asosida oila institutining jamiyatdagi o'rni va uning ijtimoiy ahamiyati tahlil qilindi. Bundan tashqari, tadqiqotda matnshunoslik (tekstologik) metod qo'llanilib, asarning mazmun-mohiyati, undagi tushunchalar va ularning o'zaro bog'liqligi chuqur o'rganildi. Ushbu metodlar majmuasi orqali asarning ilmiy, diniy va tarbiyaviy jihatlari kompleks tarzda yoritildi [1]. Tanlangan metodlar asarning diniy-normativ xarakterini hamda uning ijtimoiy-funksional jihatlari kompleks ravishda ochib berish imkonini berdi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Oila muqaddasligi va uning islomdagi o'rni Islom ta'limotida oila muqaddas institut sifatida e'tirof etiladi. Baxtiyor oila asarida oila inson hayotining asosiy tayanchi, jamiyatning barqarorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida talqin qilinadi. Muallifning oila institutini diniy burch sifatida talqin qilishi uni sekulyar ijtimoiy institut nazariyalaridan farqlaydi va oilani nafaqat ijtimoiy birlik, balki ma'naviy mas'uliyat makoni sifatida talqin etishga asos yaratadi. Asarda ta'kidlanishicha, oila mustahkamligi, avvalo, uning islomiy qadriyatlarga asoslanishiga bog'liq. Bu esa jamiyatda ma'naviy muhitning sog'lom bo'lishini ta'minlaydi [1].

Asarda er-xotin o'rtasidagi munosabatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Muallif ularning o'zaro munosabatlarini hurmat, sadoqat, sabr-toqat va mehr-oqibat kabi qadriyatlarga asoslash zarurligini ta'kidlaydi. Qur'on oyatlariga tayanib, er va xotin bir-biriga libos ekani haqidagi g'oya keltiriladi [2]. Bu esa ularning o'zaro yaqinligi, bir-birini himoya qilishi va qo'llab-quvvatlashini anglatadi. Natijada oilada sog'lom psixologik muhit shakllanadi [3] Ushbu yondashuv oilada huquqiy tenglik masalasini emas, balki axloqiy mas'uliyat konsepsiyasini ustuvor deb biladi.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf asarida farzand tarbiyasi masalasi eng muhim yo'nalishlardan biri sifatida ko'rib chiqiladi. Muallifning fikricha, farzand — bu ota-onaga berilgan ilohiy ne'mat va mas'uliyatdir. Asarda farzandni jismoniy emas, balki ma'naviy va axloqiy jihatdan tarbiyalash muhimligi alohida ta'kidlanadi. Halollik, poklik, hurmat, iymon kabi fazilatlar oilada shakllanishi lozim bo'lgan asosiy qadriyatlar sifatida ko'rsatiladi [5].

Oila va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik: Asarda oila va jamiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ilmiy asosda yoritiladi. Mustahkam oila — barqaror jamiyatning asosi sifatida talqin qilinadi. Agar oilada sog‘lom muhit mavjud bo‘lsa, bu bevosita jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [7]. Shu nuqtai nazardan, muallif oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash orqali ijtimoiy muammolarni kamaytirish mumkinligini asoslaydi. Bu esa asarning zamonaviy ahamiyatini yanada oshiradi [6].

### **XULOSA**

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Baxtiyor oila asarida oila instituti diniy-axloqiy model sifatida talqin qilinib, u jamiyat barqarorligining ma’naviy asosi sifatida asoslab beriladi. Asarda ilgari surilgan hurmat, sabr-toqat, sadoqat va mas’uliyat tamoyillari oilaviy munosabatlarning normativ-me’yoriy tizimini shakllantiruvchi muhim qadriyatlar sifatida yoritilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tomonidan taklif etilgan konseptual yondashuv oilani nafaqat ijtimoiy institut, balki ma’naviy mas’uliyat makoni sifatida talqin etishga asos yaratadi. Mazkur qarashlar zamonaviy ijtimoiy transformatsiya sharoitida oila institutini mustahkamlashning muhim nazariy asoslaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2012. – 5–12-betlar (oila muqaddasligi masalasi); 45–52-betlar (er-xotin munosabatlari); 78–85-betlar (farzand tarbiyasi).
2. Qur’on. O‘zbekcha tarjima va tafsir. – Toshkent: Movarounnahr, 2001. – Baqara surasi, 187-oyat; Rum surasi, 21-oyat.
3. Abu Hamid al-Ghazali. Ihyo ulum ad-din. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2005. – 2-jild, 34–40-betlar (oila va axloq masalalari).
4. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 244–250-betlar (oila va ma’naviyat masalalari).
5. Musurmonova O. Oila pedagogikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016. – 15–22-betlar (oila institutining pedagogik asoslari).